

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Geografiya fani o'qituvchisi
Xudoyorov Lochinbek
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
yo'nalishi 3-kurs talabasi
Haydarova Noila

O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK JARAYONLAR SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Annatatsiya: Aholi sonining o'sib borishi (tug'ilish) yoki kamayishi (o'lim), shuningdek, nikoh, ajrim va migratsiya ko'rsatkichlari bilan uzviy chambarchas holda kechadi. Ushbu maqolada demografiyaning fan sifatida paydo bo'lishi, uning rivoji va O'zbekiston aholisining demografik ko'rsatkichlari haqida boradi.

Kalit so'zlar: Demografiya, A.Giyar, O'zbekiston, tug'ilishi, o'lim, nikoh va ajralish, yosh-jinsiy tarkib, oilaviy tarkib, demografik vaziyat, demografik prognoz.

Annotation: Population increases (births) or decreases (deaths) are closely related to marriage, divorce, and migration rates. This article deals with the emergence of demography as a science, its development and demographic indicators of the population of Uzbekistan.

Key words: Demography, A. Giyar, Uzbekistan, birth, death, marriage and divorce, age-sex composition, family composition, demographic situation, demographic forecast.

Demografiya - har yili turli sabablarga ko'ra vafot etgan aholi o'rnnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to'ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga bog'liq holda o'rganadigan fandir. Demografiya terminini 1855-yilda fransuz olimi A.Giyar qo'llagan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida keng tarqaldi. O'zbekistonda asosan 1960-yildan qo'llanila boshladi.

Demografiyaning vazifalari quyidagilardir:

◀ demografik jarayonlar ya'ni tug'ilishi, o'lim, nikoh va ajralish, aholining yosh-jinsiy va oilaviy tarkibi va ularning omillarini o'rganish, demografik prognoz;

◀ hudud aholisining soni, yosh-jinsiy tarkibi va demografik vaziyatlarni oldindan ilmiy prognoz qilish.

Demografik jarayonlarni o'rganishda ko'p ma'lumotlardan foydalaniadi. Tug'ilish, o'lim, nikoh, aholi soni va tarkibi kabi demografik jarayonlar ilmiy jihatdan o'rganilib, tahlil qilinadi va ushbu ma'lumotlar asosida diagrammalar va jadvallar tuziladi. Demografiya aholining miqdoriy va sifatiy o'zgarishlarini, aholining takror barpo bo'lishining asosiy omillari sifatida o'rganadi. Demografiya asosiy e'tiborini tug'ilish va o'lim asosida aholining takror barpo bo'lish jarayonlariga qaratadi. Bu jarayonlarni o'rganish uchun demografiya jamiyat taraqqiyoti, bosqichlari, tarixiy sharoitlarni o'rganishi lozim. Demografiya tug'ilishni, unga ta'sir etuvchi barcha ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy omillarni alohida tahlil etadi.

O'zbekistonda ham demografik tadqiqotlar rivojlanishi o'z tarixiga egadir. 2000-2010-yillarda O'zbekiston Milliy Universiteti geografiya fakulteti qoshida "Demografiya" kafedrasi faoliyat yuritdi. Shuningdek, "Demografiya" kafedrasi Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan. Demografik bilimlar qadimdan bo'lgan, buni tarixiy manbalar orqali ko'rganmiz. Lekin O'zbekistonda maqsadli tadqiqotlarni o'tkazish asosan, 1960-yildan boshlangan. Ana shu yillarda demografiya sohasida ko'plab yutuqlarga erishgan olim Q.Qoraxonov hisoblanadi. Q.Qoraxonov demografiya sohasida o'zining ko'plab meroslarini qoldirgan. Q.Qoraxonov aholi o'sishi, tug'ilishi, o'lim, nikoh va ajralish kabi demografik jarayonlarni hamda bu jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar, muammolarni ham o'rgandi. Olimning olib borgan izlanishlari, tadqiqotlari asosida monografiya, risolalar va maqolalar chop etilgan. O'l kamiz demografik tarixini va aholi muammolarini o'rganishda R.I.Mullajonov, R.A.Abdullayeva, E.A.Ahmedov, A.S.Soliyev, N.S.Aliqoriyev, A.A.Qayumov, O.E.Ergashev kabi olimlar olib borgan tadqiqotlar demografiya sohasida alohida ahamiyatga ega.

Aholi soni va uning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik tarkibi davrlar hamda hududlar bo'yicha doimo o'zgarib turadi. Aholi soni va tarkibida sodir bo'lgan barcha o'zgarishlar mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga bevosita ta'sir etadi. Har bir mamlakat, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholi sonining ortishi va kamayishi, aholi tarkibida mehnat yoshidagi kishilar hamda bolalar va

qariyalar salmog'i ham juda muhimdir. Aholi soni va tarkibini hisobga olish uslublari, dasturlari jamiyat rivojlanishi bilan monand rivojlanib boradi. Aholini hisobga olishda to'plangan ma'lumotlar aniqligi, to'la qamrovi va muntazamligi juda muhimdir. Barcha davlatlarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holatlari hisobga olinib, ma'lumotlar muntazam to'planib boradi. O'zbekiston aholisining ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishi XIX asrning 2-yarmidan boshlandi. Podsho Rossiyasi bosib olgandan so'ng keskin o'zgardi. 1897-yil aholini ro'yxatga olish jarayonlari o'tkazildi va bu davrda O'zbekistonda 3,9 mln kishi yashagan. Shahar aholisi ulushi juda past bo'lgan, shuningdek tub aholisi migratsion harakati ham sust bo'lgan. Aholi ko'chib keluvchilar hisobiga o'sgan. Natijada, O'zbekiston hududida yangi qishloqlar, shaharlar va aholi punktlari vujudga kelgan. Biroq shunga qaramay XX asrning boshlarida aholi sonining o'sishida sezilarli o'zgarish bo'lmadi. 1924-1940-yillar davomida O'zbekiston aholisi 2,1 mln. kishiga oshdi, aholining o'sishi yiliga 3% ga teng bo'ldi. 1939-1950-yillarda esa 6,4 mln.dan 6,3 mln.ga kamaydi. Bunga sabab ikkinchi jahon urushi edi. Ikkinchi jahon urushi O'zbekiston aholisining soniga, uning tarkibiga hamda joylashuviga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Urush tugagandan so'ng aholi soni oshib bordi. 1959-1970 yillar davomida aholi soni 8,1 mln. kishidan 11,8 mln. kishiga oshdi. Bunga aholining tabiiy ko'payishidan ko'ra chetdan kirib kelganlar salmoqli o'rinn egallardi. 1980-1990 yillar aholi soni qariyb 5 mln. kishiga ko'paygan. 2013 yilga kelib esa 30 mln. aholi O'zbekiston hududida istiqomat qilgan. Shuningdek, 1989-2013 yillar oralig'ida aholining milliy tarkibida ham o'zgarishlar ro'y bergan. 1989 yil o'zbeklar ulushi 71,5 foizga teng bo'lsa, 2013 yilga kelib 82,9%ga oshgan, ya'ni aholining milliy tarkibida o'zbeklar salmog'i oshgan. Shu bilan birga mamlakatda 2% dan 3,5% ga Qoraqalpoqlar va 4,5 % dan 4,8% ga tojiklarning salmog'i oshgan. Aksincha ruslar ulushi 8,2% dan 2,7% ga kamaygan va qozoqlar ulushi sezilarli darajada kamaygan. Mamlakatda tub aholi o'zbek millatiga mansub aholi soni 2021 yilga kelib 1989 yilga nisbatan ikki baravardan ziyodga (107% ga) ko'paygan. Mamlakatda millatlar ning geografik joylashi shi ham bir tekis emas. Buning birinchi sababi millatlarning tarixiy rivojlanishi bo'lsa, ikkinchidan respublikada xalq xo'jalik tarmoqlari ning rivojlanish xususiyatlaridir.

Aholining tabiiy ko'payishi birinchi navbatda tug'ilishga bog'liq. 1865-1917 yillarda tug'ilishning umumiyligini koeffitsiyenti (har 1000 ta bolaga nisbatan tug'ilganlar soni) 45% ni tashkil etgan. Oilada farzandlar tug'ilishi cheklanmagan.

Buning asosiy omili o'zbek ayollarining ijtimoiy ishlab chiqarishda juda kam ishtiroki va qadriyat ta'sirining yuqoriligidir. Shuningdek, bu davrlarda aholining o'lim ko'rsatkichi ham yuqori bo'lgan. 1886-1890 yillarda 1000 ta aholiga nisbatan 49,8 ta bola tug'ilgan bo'lsa, o'lganlar soni esa 44,8 taga teng edi. Bu ko'rsatkichlar o'lim darajasining yuqori ekanligidan dalolat beradi. O'rtacha umr ko'rish davri ham juda qisqa bo'lgan (32 yosh) 1991 yilda O'zbekiston iqtisodiy munosabatlarda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sodir bo'ldi va bu o'zgarishlar demografik holatga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'zbekistonda tug'ilishning yuqoriligi, oila qadriyatlari hamda nikohdan o'tish jarayonlarining yuqoriligidir. Respublikada 1980-1995 yillarda o'lim koeffitsiyenti 7,5 promilledan 6,4 promillegacha qisqardi hamda go'daklar va bolalar o'rtasidagi o'lim darajasi kamaydi. Tibbiy xizmatlarning yaxshilanishi hamda aholi o'limining keskin kamayishiga olib keldi. Shahar hududlarida aholining o'limi qishloq joylardagiga nisbatan yuqori. Bunga sabab shaharda ekologik vaziyatning o'zgarishi, shahar turmush tarzi, aholining muntazam harakatda bo'lmasligi va sof-stabiiy mahsulotlarni iste'mol qilmaslidir.

O'zbekiston aholisi sonining o'zgarishida migratsiyaning ahamiyati ham katta. Aholi migratsiyasi (lotincha "migratsion"- ko'chish) - yashash joyini doimiy yoki vaqtincha o'zgartirish maqsadida ko'chishdir. Hozirgi kunda aholining tabiiy o'sishi, zichligi, uning hududlar bo'y lab joylashuvida ham migratsion harakatlarning ta'siri bor. Migratsiyaning asosiy belgilaridan biri ma'muriy chegarani kesib o'tishidir. Shunga ko'ra migratsiya: tashqi va ichki migratsiyaga bo'linadi.

Tashqi migratsiya - bir davlatdan ikkinchi davlatga, bitta Qit'adan ikkinchi Qit'aga ko'chishidir. Bu jarayonda davlat aholisi qayta taqsimlanadi va ularda aholining ko'payishi yoki kamayishi kuzatiladi.

Ichki migratsiya-bitta davlat ichida aholining hududlar bo'y lab ko'chishidir. Bunda migratsiyada ma'lum davlat ichida shahar va qishloq, tumanlar bo'y lab aholining qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi. O'zbekistonda o'tkazilgan aholi ro'yxatlarida respublikaga ko'chib kelib, ikki yildan kam yashagan aholi migrant hisoblangan. O'zbekistonning Podsho Rossiysi tomonidan bosib olingandan so'ng migratsiya harakatlari ya'ni ko'plab oilalarning ko'chib kelishi kuzatilgan. Hamda ular uchun qulayliklar, ko'plab imkoniyatlar taqdim etilgan. XX asr boshlarida ko'chib keluvchilar salmog'i juda yuqori bo'lgan. Ayniqsa, Mirzacho'lni o'zlashtirish, u yerda qurilish, sanoat korxonalarining barpo etilishi natijasida

migratsion oqim kuchlari bo'lgan. Natijada, 1963 yil Sirdaryo va 1973 yil Jizzax viloyatlari tashkil topgan. Respublika aholisi, asosan, qadimdan o'zlashtirilgan, sug'orma dehqonchilik uchun sharoit qulay bo'lgan voha va vodiylarda zich joylashgan.

Mamlakatning shahar aholisi nihoyatda notekis joylashgan. 2022 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 1 km² o'rtacha 78,6 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,6 kishiga ko'proq (2021 yilda 1 km² 77,0 kishi). Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahri (8035,1 kishi), Farg'ona (576,4 kishi) va Andijon (756,6 kishi) viloyatlarida, eng past ko'rsatkichlar Navoiy viloyati (9,3 kishi), Qoraqalpog'iston Respublikasi (11,7 kishi) va Buxoro viloyatida (49,1 kishi) qayd etilgan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Bo'riyeva M.R. Demografiya asoslari. O'quv йо'llanma. Toshkent, 2001.
2. Bo'riyeva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. Toshkent, 1997
3. Bo'riyeva M.R., Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi. Toshkent, 1999.
4. Bo'riyeva M.R., Egamova D. Dunyo aholisi. Toshkent, 2008.
5. Valentey D. I., Kvasha A.S. Osnovi demografii. M.: 1989.
6. Xudoyorov Lochinbek, Malikov Mehrob. Nil daryosi va geografik joylashuvining xususiyatlari. "Экономика и социум" №11(114) 2023